

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

#35 (16689)
2025–yil 3–sentabr,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz


Gazeta 1925–yildan chiqa boshlagan

Maktab

– mo‘jiza,
ustoz
sabog‘i –
xazina

YURTIMIZNING
BARCHA
UMUMTA'LIM
MASKANLARIDA
2025–2026–O'QUV
YILI BOSHLANDI.

MMTV axborot xizmati fotosi



Yer elni boqadi

→ 3-bet

Davlatimiz rahbarining 2025–yil 5-apreldagi “Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-153-sonli qarori ijrosini ta'minlash borasida Chust tumanida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tuman yoshlari uchun qishloq xo'jaligida bandlik, tadbirkorlikda mustaqil daromad manbayini yaratish yo'lida yer ajratish bilan birga 100 million so'mgacha intiyozli kreditlar ham taqdim etilyapti. Mazkur tashabbus natijalari o'z mevasini bera boshladi.

BAXT – INTILGANNIKI, G'ALABA – KURASHGANNIKI!

→ 2-bet

Bu yil O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligining 34 yilini nishonladi. Mustaqillik bayrami nafaqat yurtimiz tarixidagi muhim sana, balki xalqimiz hayotida tobora yangi mazmun kasb etayotgan ulug'vor qadriyatdir. Bugun mustaqillikning qadri xalqimiz, yurtdoshlarimiz, xususan, yoshlarimiz qalbidagina chuqur anglanmoqda. Mustaqillik shunchaki tarixiy sana emas, inson erkinligi, huquqlarini hurmat qilish, shaxs qadri va orzu-intilishlariga yo'l ochib beradigan bebaho ne'matdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon inson huquqlarini ta'minlash, yoshlar manfaatlarini himoya qilish, adolati shart-sharoit yaratish va taraqqiyot sari dadil qadam tashlash yo'lida ko'plab islohotlarni amalga oshirdi. Yurtimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimiz mustaqillikni faqat siyosiy erkinlik emas, o'zini anglash, jamiyatda o'z o'rnini topish va yaratuvchanlik yo'lida keng imkoniyat sifatida ham qabul qiladi.

Shu bois bu yilgi Mustaqillik bayrami ham o'ziga xos ruh va mazmun bilan o'tdi. Xalqimiz mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan yutuqlarni o'z hayotida yanada chuqur his etyapti. Ularning so'zlari, bayram tantanalaridagi kayfiyat shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston erkinlik, farovonlik va yangilanish yo'lida dadil qadam tashlamqoda.

NUTQ
KATTA
HAYAJON
UYG'OTDI

Bu yilgi Mustaqillik bayrami o'zining ko'tarinkiligi, mazmunan boyligi va amaliy natijalar salmoqliligi bilan qadrlidir. Bayram faqatgina rasmiy marosim emas, xalqimiz erishgan yutuqlarining ifodasi bo'lib, shu ma'noda Prezident nutqi kishilarda katta hayajon uyg'otdi.

“Yashasin O'zbekiston davlati, yashasin O'zbekiston xalqi!” degan chaqiriq Mustaqillik bayramida butun yurtimiz bo'ylab yangradi. Bu da'vat xalqimizning qalbidagina chuqur aks sado berdi, har bir yurtdoshimizni faxr va hayajonga to'ldirdi. Bu shior shunchaki bayram so'zi bo'lib qolmasdan, kelajak sari ishonch va birlikning timsoliga aylandi.

Mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan natijalar xalqimizning mehnati va fidoyiligining mevasidir. Bugun har bir fuqaro o'zining tinch hayoti, farovonligi, shuningdek, mamlakat kelajagi uchun mas'ul ekanini his etib yashamoqda.



→ 3-bet

Bilim va tashabbus

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari orasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion tashabbus bilan uyg'unlikda rivojlanayotgan yoshlar safi kengayib bormoqda. Ularning intilishi, bilimga chanqoqligi va tashabbuskorligi mamlakatimizda huquqiy tafakkurni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shunday yoshlar safida bilimdonligi, tashabbuskorligi va huquqiy texnologiyalarni targ'ib etishdagi izlanishlari bilan ajralib turganlardan biri Shohjahon Abdusattorovdir.

Shohjahon Toshkent davlat yuridik universitetida o'qishni boshlagach, faqat dars jarayonlari bilan cheklanib qolmadi. U o'zini tashabbuskor, faol va yangilikka intiluvchi talaba sifatida namoyon etdi.

MUZEYDA OCHIQ DARS



Poytaxtimizdagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vaziri E'zoza Karimova ishtirokida qatag'on qurbonlari va jadidlik harakati namoyandalari jasoratiga bag'ishlangan ochiq dars tashkil etildi.

Bugungi tinch va osoyishta, mustaqil va erkin zamonlarni ma'rifatparvar jadid bobolarimiz ko'rishni orzu qilgan. Ayni shu maqsad yo'lida o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yg'alar.

Ochiq darsda mudofaa vaziri o'rinbosari, general-mayor Hamdam Qarshiyev ham ishtirok etdi.

Tadbir davomida vazir E.Karimova qatag'on qurbonlari va jadidlar tarixi haqida batafsil so'z yuritdi va o'quvchilarning fikr-mulohazalarini tingladi.

Ma'lumot uchun aytish kerakki, “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida tarix fanidan ochiq dars mashg'ulotlari Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida tashkil etilgan xotira muzeylarida o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

O'ZA

ANDREA BOCHELLI REGISTONDA



Samarqand shahridagi Registon maydonida ilk bor dunyoga mashhur italiyalik tenor Andrea Bocelli jonli ijroda kuyladi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi tomonidan O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, O'zbekiston Milliy banki hamda “O'zsanoatqurilishbank” ko'magida tashkil etilgan konsert dasturini tomosha qilish uchun nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijdan ham mehmonlar, ayni paytda mamlakatimizda bo'lgan sayyohlar Samarqandda jam bo'ldi.

Andrea Bocelli italyan vokal an'analarning timsoli sifatida butun dunyoda tan olingan.

Konsertda jahonning yetakchi opera xonandalaridan biri Aida Garifulina maxsus mehmon sifatida ishtirok etdi. Shuningdek, O'zbekiston Milliy simfonik orkestri va mamlakatning yetakchi xor jamoalari qatnashdi.

G'olib HASANOV,
O'ZA muxbiri



YOLG'IZLIK EPIDEMIYASI YASHARMOQDA...

→ 4-bet

XXI asrni ko'pincha “aloqa davri” deb atashadi. Chunki insoniyat bugun bir-biri bilan tezkor va uzluksiz muloqot qila oladi: ijtimoiy tarmoqlarda yuzlab do'stlar, onlayn uchrashuvlar, cheksiz suhbatlar... Ammo bu ulkan imkoniyatlarning ortida katta muammo bor: odamlar tobora ko'proq yolg'izlikni his qilaypti. Shu bois olimlar buni “yolg'izlik epidemiyasi” deb atay boshladi.

YOSHLAR NEGA O'ZINI YOLG'IZ HIS QILADI?

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yiicha har olti kishidan biri yolg'izlikdan aziyat chekmoqda. Eng yuqori ko'rsatkichlar esa o'smirlar orasida qayd etilyapti. 13 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan aholi vakillaridan 17–21 foizi o'zini yolg'iz his qiladi.

BUYUK CHORLOV

So'nggi yillarda mamlakatimiz iqtisodida sezilarli o'sish kuzatildi. Kambag'allikni qisqartirish yo'lida sezilarli natijalarga erishildi: ilgari xalqaro tashkilotlar tomonidan 35 foiz deb baholangan kambag'allik ko'rsatkichi bugunga kelib 6,8 foizgacha tushdi. Yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va investitsiyalarni jalb qilish esa iqtisodiyotning poydevorini mustahkamladi.

Aholining turmush darajasi yaxshilandi, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Yoshlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilib, ularning ilmiy, ijodiy va sportdagi yutuqlari xalqaro maydonda tan olinmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev har bir chiqishida yoshlarni "oltin avlod", Yangi O'zbekistonning poydevori sifatida ta'riflaydi. Prezidentning nutqlarida yoshlarga imkoniyatlarni kengaytirish, ularning baxtli kelajagi uchun sharoit yaratish eng ustuvor vazifa sifatida qayd etilmoqda. Yoshlarning erishgan yutuqlari, xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari va sport hamda ilm-fandagi g'alabalari butun xalqimizga faxr-iftixor bag'ishlamoqda. Bu yil futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Boks bo'yicha 19 va 22 yoshli bokschilari-miz Osiyo chempioni bo'lishdi. Shaxmat va boshqa sport turlarida ham yoshlarimiz xalqaro miqyosda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu g'alabalar yoshlarning mashaqqatli mehnati, davlat e'tibori va xalqning qo'llab-quvvatlashi natijasidir.

Yoshlarimiz xalqaro fan olimpiadalarida ham yuqori natijalar ko'rsatyapti. 2025-yilda kimyo, matematika, AT va geografiya yo'nalishlarida oltin, kumush va bronza medallar qo'lga kiritildi. O'zbekiston yoshlari MDH davlatlari orasida kimyodan ikkinchi, matematika va iqtisodiyotdan uchinchi, AT va geografiyadan to'rtinchi o'rinni egalladi. Bu yutuqlar yoshlarimizning ilmiy salohiyati naqadar yuksak ekanini ko'rsatadi.



INSON RESURLARI

Bugungi kunda O'zbekiston yoshlar mamlakati sifatida e'tirof etilmoqda. Bu bejiz emas, chunki mamlakat aholisi tarkibida yoshlar ulushi qariyb 60 foizni tashkil etadi. Prezidentimiz o'z nutqida ta'kidlaganidek, har yili mamlakat aholisi o'rtacha 700–800 ming kishiga ko'paymoqda. Bu raqam o'z-o'zidan demografik jarayonlarning qanchalik faol kechayotganini ko'rsatadi. Eng muhimi, har yili 500–600 ming nafar yosh mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Bu esa mamlakat kelajagining bevosita yoshlar salohiyatiga tayanishini anglatadi.

Bunday tezkor o'sish bizni inson resurslariga asoslangan taraqqiyot yo'liga yetaklaydi. Yurtimizdagi yoshlar nafaqat nufusan ko'p, balki bilim va malakalarini oshirib, mamlakatning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.



Baxt – INTILGANNIKI, g'alaba – KURASHGANNIKI!

BANDLIK VA FAROVONLIK

2025-yilda bandlikni ta'minlash bo'yicha dasturga ko'ra, yil davomida 5,5 million aholining bandligini ta'minlash rejalashtirilgan edi. Eng quvonarlisi shundaki, oradan sakiz oy o'tmasdan bu ko'rsatkich 5 millionlik reja darajasida bajarildi. Bu juda katta yutuq, chunki u nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki aholi farovonligini ta'minlash yo'lidagi izchil siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. Ishsizlikning qisqarishi aholining turmush darajasini yaxshilashga bevosita ta'sir qilmoqda. Fuqarolar ish bilan ta'minlangani sayin ularning ijtimoiy hayotdan qoniqishi ortib, jamiyatda barqarorlik mustahkamlanmoqda.

Prezident topshirig'iga asosan 2025-yilda 92 ming nafar bitiruvchi talabani ish bilan ta'minlash belgilangan. Ushbu ishlar jadallik bilan davom etib, yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada kuchaytirmoqda.



BUNDAY XALQCHIL TIZIM DUNYODA YO'Q!

O'zbekistonning yoshlar bilan ishlash borasidagi siyosati o'ziga xosliklari bilan alohida ajralib turadi. Avvalo, bu siyosat milliy qadriyatlar va tarixiy merosga tayangan holda shakllantirilgan. Mustaqillik yillarida yoshlar masalasini davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylantirish, uni qonunchilik darajasida mustahkamlash va amaliyotda samarali qo'llash yo'lida katta ishlar qilindi.

Davlat eng avvalo qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan yoshlar qatlamiga alohida e'tibor qaratmoqda. Ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga solish, kasb-hunariga o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi. Yoshlar muammolarini bevosita tinglash, ularga davlat tomonidan kredit va imtiyozli qarzlarni berish, o'z biznesini yo'lga qo'yishda ko'maklashish yo'lga qo'yildi.

Yoshlar kasb-hunarga yo'naltirilib, ularning ta'lim va tarbiyasi davlat siyosatining markaziga olindi. Shu maqsadda maxsus markazlar tashkil etilib, psixologik xizmatlar, oilaviy hayot saboqlari, huquqiy maslahatlar ham yo'lga qo'yildi.

Yoshlar bilan ishlashda yagona tizim shakllantirildi: ularga zarur ish qurollari berish, tadbirkorlikda ilk qadamlarda yordam ko'rsatish, ota-onasiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilish – bularning barchasi davlat siyosatining amaliy ifodasidir.

Endilikda bir yoshning muammosi faqat yuqori tashkilotlarga yetib borishi shart emas. Avvallari bitta murojaat Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi yoki vazirliklarga qachonki kerak edi, bu esa ko'p vaqt va kuch talab qilardi. Bugungi tizim esa bu jarayonni tubdan o'zgartirdi. Har bir mahallada yoshlar bilan ishlash uchun alohida yoshlar yetakchilari tayinlandi. Ular mahalladagi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yoshlarning muammolarini joyida hal etmoqda. Endilikda har bir yoshning murojaati to'g'ridan to'g'ri uyida tinglanib, mas'ul xodimlar u bilan suhbatlashyapti. Natijada yoshlarning muammolari mahallaning o'zida tezkor hal etilmoqda. Mutasaddi rahbarlar bevosita yoshlarning uyiga borib, ularning sharoitini o'rganyapti. Yoshlar o'z fikrini erkin aytish, muammolarini ochiq bildirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Kasb-hunarga yo'naltirish, maslahat olish va amaliy yordam ko'rsatish tizimi samarali ish-lamoqda.

Bunday xalqchil tizim dunyoning hech bir davlatlarida uchramaydi. Yoshlarning muammosini joyida hal etish, ularning ijtimoiy hayotini yaxshilash, kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlash O'zbekistonning yoshlar bilan ishlash borasidagi yondashuvini ko'rsatib turadigan jihatdir.

REKORD KO'RSATKICH

Yoshlar bilan ishlashda alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri – yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish. Yaqin tariximizda bunday katta ko'rsatkichlar bo'lmagan. Masalan, 2025-yilda o'tkazilayotgan "Besh tashabbus" olimpiadasi doirasidagi tanlovlarda rekord ko'rsatkich – 7 million 300 ming nafar yosh qatnashdi. Sport musobaqalari, turli ko'rik-tanlovlar, kitobxonlik, kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan bellashuvlar – bularning barchasi yoshlarni band qilish, ularning qiziqishi va iste'dodini yuzaga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, sog'lom avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

99

66

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Alisher SA'DULLAYEV,

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi direktori, senator



TA'LIMDA YUKSALISH BOSQICHI

Yangi O'zbekistonning ta'lim tizimidagi islohotlari diqqatga molik. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalari soni keskin ko'paydi. Ayniqsa, xususiy sektorning faol ishtiroki hisobiga bugungi kunda bog'chalardagi o'rinlar soni 2,5 millionga yetdi. Natijada 3–6 yoshdagi bolalarning 78 foizi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi.

Yangi maktablar qurilishi va mavjudlarini kengaytirish hisobiga qo'shimcha 1 million o'quvchi o'rni yaratildi. Natijada umumiy o'rta ta'lim sifati oshib, zamonaviy sharoitlarda ta'lim olish imkoniyati kengaydi.

Bundan 9-10 yil avval mamlakatimizda yoshlarning atigi 9 foizi oliy ta'lim bilan qamrab olingan edi. Bugun esa bu ko'rsatkich 42 foizga yetdi. Bu – tarixiy yutuq. Talabalar tarkibida qizlarning ulushi 53 foizni tashkil etayotgani alohida e'tiborga loyiq. Ularning zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashi O'zbekistonning ertangi taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

O'RGANISH – MUTLAQO BEPUL

So'nggi yillarda yoshlarimizning ta'lim olish va chet tillarni o'rganishga qiziqishi keskin ortib boryapti. Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida 20 dan ortiq chet tilini o'rganish imkoniyati yaratildi. Natijada yuz minglab yoshlar bepul til o'rganib, xalqaro sertifikatlariga ega bo'lmoqda. Bundan tashqari, "Ustoz AI" loyihasi orqali yoshlar kasb-hunar o'rganmoqda, "Qizlar akademiyasi"da qizlarimiz nafaqat kasb-hunarga, balki psixologik muammolari hal qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lmoqda. Yosh kitobxonlar "Mutolaa" platformasi orqali kitob o'qish imkoniyatidan foydalanmoqda. Eng muhimi, bularning barchasi mutlaqo bepul!

Bugungi kunda yoshlarimizning bilim olishga, oliy ta'lim muassasalarida o'qishga qiziqishi sezilarli darajada ortgan. Misol uchun, 2025-yilda mamlakatimizdagi uchta maktab bitiruvchilari 100 foizlik natija bilan oliy ta'lim muassasalariga qabul qilinganini davlatimiz rahbari juda katta faxr bilan tilga oldilar. Bu – O'zbekiston ta'lim tizimidagi katta yutuqlardan biri.

Yoshlarning chet tillarni o'rganishi, bepul kasb-hunar dasturlarida ishtirok etishi, kitobxonlik va zamonaviy platformalardan foydalanishi ularning intellektual salohiyatini oshiryapti. Shu asnoda O'zbekiston yoshlari ta'lim va ilm-fan sohasida yangi cho'qqilarni zabt etmoqda.

ENG KATTA BAXT

Aslida inson hayotida eng muhim qadriyat – tinchlik. Tinchlik bo'lmasa, taraqqiyot ham, farovonlik ham bo'lmaydi. Ikkinchi navbatda esa zamonaviy inson uchun ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugun yurtimizda iqtisodiy jihatdan ta'minlanganlik, farovonlik, ko'ngil ochish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, tibbiy xizmatlardan foydalanish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Yurtdoshlarimizning erkin hayot tarziga ega bo'lishi, o'z xohish-istaklariga ko'ra mehnat qilishi, ta'lim olishi, hatto istasa, dunyodagi eng ilg'or universitetlarda bilim olish imkoniyatiga ega bo'lishi katta baxtdir.

Shu sharoitlar mavjud ekan, inson o'z orzu-intilishlarini ro'yobga chiqara oladi. Baxt intilgan, g'alaba esa kurashgan insonga nasib etadi. Davlat rahbarining Mustaqillik kuni munosabati bilan xalqimizga bayram tabrigining bosh g'oyasi ham aynan shunda mujassam: inson huquqlari ta'minlangan, erkinlik va taraqqiyot nafasini chuqur his etish mumkin bo'lgan O'zbekiston – har bir fuqarosi uchun faxr va g'urur manbai. Bu chiqiriq xalqimizni kelajakka ishonch bilan qadam tashlashga undaydi.



Umid qilamanki, o'zbekistonlik yoshlar davlatimizning g'amxo'rli-gi va ulkan e'tiborini qadrlab, unga munosib javob qaytarishadi. Ular Vatan kelajagi, xalqimizning farovonligi, jamiyat taraqqiyoti uchun qo'li-dan kelgan barcha ishlarni bajarishga tayyor ekanini namoyish etmoqda. Mehnati, bilimi, yutuqlari bilan yoshlarimiz xalqimizga ulkan iftixor bag'ishlamoqda.

Shu o'rinda barcha O'zbekiston yoshlari va butun xalqimizni Mustaqillikning 34 yillik tantanalari bilan chin qalbidan tabriklayman. Ushbu buyuk sana yurtimizga taraqqiyot, farovonlik va birlik olib kelsin!



Sening tengdoshing

Bilim va tashabbus

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Talabalik davrida uning eng muhim tashabbuslaridan biri “Zukko Yurist” loyihasi bo'ldi. U asos solgan ushbu tanlov qisqa vaqt ichida universitet doirasidan chiqib, respublika miqyosiga yoyildi. Ikki yil davomida mun-tazam tashkil etilgan loyihada 10 mingdan ortiq yoshlar ishtirok etdi. Tanlov nafaqat universitetda, balki yuridik litseylar, “Temurbeklar maktabi” va boshqa ta'lim muassasalarida ham o'tkazildi.

“Zukko Yurist” o'ziga xosligi bilan alohida e'tibor qozondi. Bu tanlovda huquqiy bilim, mantiqiy tafakkur va badiiy adabiyot uyg'unlashgan bo'lib, yosh huquqshunoslarni uchun amaliy maktab vazifasini bajardi. Loyiha orqali ko'plab talabalar huquqiy bilimlarni o'zlashtirish, mantiqiy mushohada qilish va badiiy asarlardan huquqiy xulosalar chiqarishni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldi.



PLATFORMA YOSH MUTAXASSISLAR UCHUN O'Z ILMIY IZLANISHLARINI CHOP ETISH MAYDONINI HAM YARATIB BERAYOTGANI BILAN AHAMIYATLI.



ning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shohjahon Abdusattorov o'z tashabbuslarini ta'limdan tashqari huquqiy-innovatsion sohada ham davom ettirdi. U yaratgan **Zukkoyurist.uz** blogi bugungi kunda huquqiy bilimlarni keng jamoatchilikka yetkazib berayotgan eng faol platformalardan biri sifatida shakllandi. Ushbu sayt orqali intellektual mulk huquqi, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq dolzarb maqolalar e'lon qilinib, yoshlarga hamda huquqshunoslarga bilim manbasi bo'lib xizmat qilmoqda. Platforma yosh mutaxassislar uchun o'z ilmiy izlanishlarini chop etish maydonini ham yaratib berayotgani bilan ahamiyatli.

Qahramonimizning universitetdagi faoliyati va yetakchilik qobiliyati 2022-yilda munosib e'tirof etildi. U talabalarining ilmiy, ijtimoiy va tashabbuskorlikdagi muvaffaqiyatlarini saralovchi “Yil talabasi” tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu e'tirof yuridik sohada bilim, tashabbus va ijtimoiy faollikni o'zida mujassam etgan eng ilg'or talabalar safini belgilab beruvchi ko'rsatkich sifatida qadrlanadi.

Shohjahonning intellektual salohiyati talabalikdan tashqari maydonlarda ham o'z ifodasini topdi. U bir nechta intellektual shoularda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu nati-janing keng dunyoqarashi va tezkor fikrlash qobiliyatini ko'rsatgan kichik, ammo ahamiyatli sinovlardan biri bo'ldi.

2023-yilda u Toshkent davlat yuridik universitetini a'lo darajada tamomlab, xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyat qozondi. Shohjahon dunyoning “Top – 100” oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kirgan AQShdagi Pensilvaniya davlat universiteti magistraturasiga 80 foizlik grant asosida qabul qilindi. Bu bosqich uning huquqiy bilimlari xalqaro standartlarda ham o'z qiymatiga ega ekanini isbotladi.

Magistrlilik izlanishlarida Shohjahon ilmiy qiziqishini intellektual mulk huquqi va sun'iy intellekt sohaslarining kesishgan nuqtasiga qaratdi. Bu yo'nalish bugungi kunda huquq va texnologiya integratsiyasi-

Bu tashabbuslar huquq va texnologiya integratsiyasida yangi ufqlarni ochib beryapti. Hozir qahramonimiz aynan ushbu ikki sohaga e'tibor qaratib, huquqiy tizimni raqamli yechimlar orqali samarali va ommabop qilish yo'lida izlanishlar olib bormoqda. Bugungi kunda Shohjahon Abdusattorov talabalik davrida boshlangan tashabbuslarini xalqaro yutuqlar, ilmiy izlanishlar va texnologik loyihalar bilan boyitib kelayotgan yosh yetakchilardan biridir. Uning faoliyati bir narsani yaqqol ko'rsatadi: bilimga chanqoqlik, qat'iyat va tashabbuskorlik yoshlarni shaxsiy muvaffaqiyat hamda jamiyat taraqqiyoti sari yetaklaydi.

QO'QONDA YOSHLAR BILAN MULOQOT



Yoshlar ishlari agentligi direktorining birinchi o'rinbosari Dilnoza Kattaxonova Farg'ona viloyati yoshlari muammolarini o'rganish va ularni hal etish maqsadida navbatdagi sayyor qabulni o'tkazdi.

Uchrashuv davomida 30 dan ortiq yoshning murojaati tinglandi. Unda yoshlar bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ta'lim sohasiga oid qator taklif va tashabbuslar ilgari surildi.

Shuningdek, Qo'qon shahrida avf etilgan yosh bilan uchrashuv o'tkazilib, uning ota-onasi bilan suhbat qilindi. Uni to'g'ri yo'lga qaytarish va jamiyatda o'rnini topishi uchun tegishli chora-tadbirlar belgilandi.

Kun yakunida esa 41-umumiy o'rta ta'lim maktabiga borildi hamda maktab kutubxonasiga 200 dan ortiq badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

20 YOSHLI DEHQON QIZ

Guzar mahallasi tuman markazidan 18 kilometr olisda joylashgan. Mahalla yoshlar yetakchisi Gulmira Asqaraliyevaning manzilli o'rganishlari natijasida 820 nafar 14–30 yosh toifasidagi yosh aniqlangan. Shundan 12 nafar ishsiz yigit-qizga “E-auksion” platformasi orqali 30 yil muddatga 30 sotixdan yer ajratildi.

Yer olgan yoshlardan biri 20 yoshli Hilola Husniddinova pomidor ekip, ilk hosildan 30 million so'mga yaqin daromad topdi.

– *Talaba bo'lish orzum edi, biroq imtihonlarda omadim kelmadi, – deydi Hilola. – Ishsiz yurgan vaqtimda yoshlar yetakchimiz yer ajratib berdi. Dehqonchilikni boshladim. Mahsulotimiz katta yo'l bo'yida sotilishi oson bo'ldi. Endilikda ikkinchi ekin ekishga ham bel bog'ladim. Harakat qilgan maqsadga yetadi!*

Yer

Chust tumani yoshlari: 66 760 nafar;	Ishsiz yoshlar: 899 nafar;	Yer olgan yoshlar: 1 515 nafar;	Aloqabankdan kredit olganlar: 41 nafar;	Mehnat migratsiyasidagi yoshlar: 2 292 nafar.
--	--------------------------------------	---	---	---



ELEKTROMOBILLAR HAM XAVF TUG'DIRADI

Dunyodagi ekologik vaziyat haqida qayg'urayotganlar ko'payib bormoqda. Ular na-faqat iqlim o'zgarishi va boshqa ekologik tahdidlardan qo'rqishadi, balki atrof-muhitni asrash uchun ham o'z hissaralarini qo'shishga harakat qilishadi. Buning ko'plab usullari mavjud: chiqindilarni alohida yig'ishdan tortib, daraxt ekishgacha.

Eng samarali usullardan biri deb esa elektromobillar ko'rila boshladi. Elektrokavlar shahar ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, ya'ni havoga zararli modda kam chiqaradi deb ta'kidlanardi. Biroq olimlarning so'nggi tadqiqotlari buni rad etmoqda.

KUTILMAGAN XULOSALAR

Yangi Zelandiyaning Oklend universiteti va Xitoyning Syamen universiteti olimlari 15 yil davomida 26 davlatdan jamlangan ma'lumotlarni tahlil qildi. Ularning xulosasi kutilmagan bo'ldi: agar mamlakat elektr tarmog'i asosan qazilma yoqilg'ilarga – ko'mir, gaz yoki neftga tayanayotgan bo'lsa, elektromobillarning umumiy ekologik ta'siri benzinli mashinalarnikidan ham salbiyroq chiqishi mumkin.

Sababi oddiy: elektromobilni quvvatlash uchun ishlatiladigan elektr energiyasi ko'mir yoki gazdan olinadigan bo'lsa, u holda atmosfera chiqadigan CO₂ miqdori yanada ko'payadi. Bunga qo'shimcha ravishda akkumulyator ishlab chiqarish jarayoni ham katta chiqindilar bilan bog'liq.

Tadqiqot mualliflaridan biri Stiven Poletti ta'kidlaydi:

“Elektromobillar universal yechim emas. Ular faqat qayta tiklanadigan energiya ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda samara beradi. Bir vaqtning o'zida yashil energetikaga o'tmasdan, ularning ekologik foydasi cheklangan bo'ladi”.



Otabek QOBILOV,

Chust tumanidagi Serob mahallasi yoshlar yetakchisi

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

“DAMAS” UCHUN IMTIYOZLI KREDIT

Pilol mahallasi yoshlar yetakchisi Abror G'aniyev boshchiligidagi 840 nafar yosh o'rganilib, 22 nafar ishsiz yigit-qizga 30 sotixdan yer ajratilgan. Bundan tashqari, Aloqabankdan 7 yil muddatga, 2 yillik imtiyozli davr bilan kreditlar taqdim etilmoqda.

Ishsiz yoshlarni yo'lovchi tashish xizmatiga jalb etish orqali bandligini ta'minlash maqsadida tumandagi o'nga yaqin yoshga “Damas” rusumli avtomashina olishlari uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Mazkur tashabbus yoshlarning bandligini ta'minlash, daromad manbayiga ega bo'lishlariga ko'maklashish, xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Husniddin Rajabov 27 yoshda. U migratsiyasida bo'lgan, biroq xorijdagi hayot uning orzu-umidlariga mos kelmadi. Husniddin hozir yo'lovchi tashish xizmatida faoliyat yuritmoqda va o'z harakati orqali oilasi daromadini oshiryapti.

– *Shaxsiy avtomashinam bo'lishini xohlardim, – deydi Husniddin. – Yoshlar yetakchisi menga “Damas” avtomobilini imtiyozli kredit asosida olish imkoniyatini tushuntirdi. Orzum amalga oshdi. Endi oilam va mahallam uchun foydali ish qilyapman.*

Chust tumanida yoshlar bandligini ta'minlash, ularni daromad manbayiga ega qilish, migratsiyani kamaytirish bo'yicha aniq tizim shakllanmoqda. Qarorlar ijrosi, banklar hamkorligi, yetakchilarning tashabbusi – bularning barchasi mahalla yoshlariga yangi imkoniyat eshigini ochyapti.

Bugun yoshlar yerga egalik qilmoqda, tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqda, xizmat ko'rsatish sohasiga kirib kelmoqda. Ularning orzulari faqat niyat emas, endilikda amaliy natijaga ham aylangan. Imkoniyatlar yetarli, har bir yosh undan to'g'ri foydalana bilsa bas.

Nuqtayi nazar



logik foyda afsonasi

Shahruza SATTOROVA

YANGI MUAMMOLAR MANBAYI

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham elektromobillar soni keskin ko'paymoqda. 2025-yil 1-iyul holatiga mamlakatda 73 600 dan ortiq elektromobil ro'yxatga olingan. Shu bilan birga, mamlakatda mahalliy ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilmoqda. Jizzaxda BYD va UzAuto hamkorligida yirik zavod ishga tushirilib, yaqin yillarda yuz minglab elektromobil yig'ish rejalashtirilgan. Darhaqiqat, O'zbekistondagi bu tendensiya zamonaviy transportga o'tish jarayonida muhim qadamdir. Biroq asosiy savol ochiq qolmoqda: energetika sektori qaysi yo'ldan boradi?

Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra, elektromobillar chiqindilarni sezilarli darajada kamaytirishi uchun mamlakat elektr energiyasining kamida yarmi shamol, quyosh yoki gidro manbalaridan olinishi zarur. Bugungi global ko'rsatkich esa bor-yo'g'i 30 foiz. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 16 foizni tashkil qiladi. Demak, energetika islohotlarisiz elektromobillar masalasi global iqlim muammosini hal qila olmaydi. Aks holda, elektromobillar soni ortishi bilan elektr energiyasiga bo'lgan talab ham oshib, qazilma yoqilg'ilarga yuklamani kuchaytiradi.

To'g'ri, elektromobillar – toza havoga, zamonaviy hayot tarziga va yangi texnologiyalarga qadam. Biroq ularni hozirgi sharoitda mutlaq yechim sifatida ko'rish – xato. Ularning haqiqiy ekologik foydasi energetika tizimining qanchalik “yashil” ekaniga bevosita bog'liq.

O'zbekiston uchun bu ikki tomonlama vazifani anglatadi: bir tarafdin, aholi va bozor talabini qondirish uchun elektromobillarni ko'paytirish; ikkinchi tarafdin esa ularning haqiqiy samarasini ta'minlash uchun toza energiya ulushini keskin oshirish.

Aks holda, “ekologik toza” deb sotib olinayotgan har bir elektromobil kelajakda yangi muammolar manbasi bo'lib qolishi mumkin.

YOLG‘IZLIK

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

EPIDEMIYASI YASHARMOQDA..

Shahruza SATTOROVA

– Kursdoshlarim bilan ham, ish-dagi jamoam bilan ham aloqalarim yaxshi, soatlab suhbatlashishim mumkin. O‘qish deb shaharga kelganman, qishloqdagi onam, singlim bilan ham har kuni gaplashaman. Bir qarashda atrofim to‘la odam, tanishlarim juda ko‘pdek. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi virtual do‘stlarimning son-sanog‘i yo‘q. Lekin shunday vaqtlar bo‘ladiki, dardlashgani, ichimdan nima o‘tayotganini aytgani birorta odam topolmayman. Hayotda faol va quvnoq ko‘ringanim bilan, ich-ichimdan o‘zimni begona his qilaman. Me-ni tushunadigan, qo‘llab-quvvatlaydigan, barcha sirlarimni biladigan yaqinim yo‘qligi alam qiladi. Soxta, “o‘ziga yarasha” do‘stlikka shunchalik o‘rganib qolganmiz, tobora yolg‘izlikka g‘arq bo‘layotganimiz sira ham bilinmaydi, – deydi Oydin Asrorova.

Bundan anglash mumkinki, bugungi yoshlarning yolg‘izlik hissi bu oddiygina “atrofda odam yo‘qligi” emas, murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon. Ularning ko‘pchiligi odamlar orasida yurgan holda ham o‘zini yolg‘iz his qiladi. Psixolog Mehrinoz Safarova buning bir nechta asosiy sabablarini sanab o‘tdi:

– Yoshlarning yolg‘izlik hissi bir nechta omillar bilan bog‘liq. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlar ta’siri: Instagram yoki TikTokdagi “mukammal hayot” tasvirlari ularni o‘zini ortda qolgan deb his qilishga majbur qiladi. Ikkinchi sabab – o‘zini anglash davri. “Men kimman?” kabi savollarga javob izlayotgan o‘smirga samimiy qo‘llab-quvvatlash yetishmasa, u ichki olamida yolg‘iz qoladi. Uchinchidan, shaharlashuv va oilaviy rishtalarning bo‘shashishi: band otazona, kichraygan oila va bo‘sh xonalar. Yana bir omil – kuchayib borayotgan individualizm. Erkinlikka intilgan yosh ko‘pincha hayot yo‘lini yakka o‘zi bosib o‘tishga majbur bo‘ladi va bu ichki bo‘shliqni kuchaytiradi.

ERKINLIKKA INTILGAN YOSH KO‘PINCHA HAYOT YO‘LINI YAKKA O‘ZI BOSIB O‘TISHGA MAJBUR BO‘LADI.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, yoshlar orasidagi yolg‘izlik ko‘proq “ijtimoiy ajralganlik” hissidir. Ya’ni ularda suhbatlashadigan insonlari, ma‘lum ma’nodagi do‘stlari ham bor, ammo chuqur, samimiy, ishonchli aloqalar yetishmaydi.

SOATIGA 100 NAFAR QURBON

Bu mavzu bir qarashda o‘ta bo‘rttirilgan, ahamiyati yuqori emasdek tuyulishi mumkin. Ammo yolg‘izlik nafaqat ruhiy holatimizga, salomatligimizga ham ayanchli ta’sir ko‘rsatadi. Qayd etilishicha, bu holat erta o‘lim ko‘rsatkichlari ortishiga ham olib kelyapti. Oqibatda xuddi shu muammo tufayli sayyorada soatiga qariyb 100 nafar, yiliga 871 ming nafardan ortiq kishi hayotdan ko‘z yummoqda.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, doimiy yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya inson organizmiga kuchli stress omili sifatida ta’sir qiladi. Natijada tanada kortizol darajasi doimiy yuqori bo‘lib qoladi, bu esa yurak-qon tomir tizimi, immunitet va hatto hujayra qarishini tezlashtiradi. Masalan, AQSh Milliy tibbiyot akademiyasi yolg‘izlikni kuni-ga 15 ta sigaret chekishga teng xavfli omil sifatida baholagan. Ya’ni inson o‘zini yolg‘iz his qilishi jismoniy sog‘lig‘iga chekish yoki semizlik darajasida zarar yetkazadi.

Yolg‘izlikning salbiy oqibatlari quyidagilarda yaqqol ko‘rinadi.

Yurak kasalliklari xavfi oshadi. Britaniyada o‘tkazilgan meta tahlilga ko‘ra, yolg‘izlikda yashovchilar orasida yurak xastaligi rivojlanish ehtimoli 29 foizga yuqori.

Immun tizim sustlashadi. Qisqa muddatli stress immunitetni rag‘batlantirsa-da, doimiy yolg‘izlik tufayli paydo bo‘lgan uzoq muddatli stress tanani infeksiyalar va kasalliklarga qarshi zaiflashtiradi.

Uyqu buzilishi. O‘zini yolg‘iz his qilgan insonlarda uyqusizlik, uyqu sifatining pasayishi ko‘proq uchraydi. Bu esa keyinchalik asabiylashish, depressiya va surunkali kasalliklarni kuchaytiradi.

Ruhiy salomatlik izdan chiqadi. Psixologlarning ta’kidlashicha, yolg‘izlik depressiya, tashvish sindromi va hatto o‘z joniga qasd qilish xavfini bir necha barobar oshiradi.

QADRIYATLAR BIZNI ASRAB QOLADI

O‘zbek jamiyatida odat tusiga kirgan jamoaviylik va oila qadriyatlari hali-hanuz kuchli, ammo agar bu rishtalar bo‘shab borsa, global tendensiyalar bizni ham ayab o‘tirmasligi tayin. Yurtimizda bu mavzu hali keng muhokama qilinayotganicha yo‘q, ammo sezilarli tendensiyalar bor. Shaharlashuv, ta’lim olish yoki ish izlab boshqa hududlarga ko‘chib ketish yoshlarni oildan uzoqlashtirmoqda. Masalan, vi-

YOLG‘IZLIKNI YENGISHNING ENG MUHIM YO‘LI O‘ZINI TINGLASH VA FAOL MULOQOTGA OCHIQ BO‘LISHDIR.



Foto: Kamoliddin AZZAM

Shaxsiy darajada

Yolg‘izlikni yengishning eng muhim yo‘li o‘zini tinglash va faol muloqotga ochiq bo‘lishdir. Qiziqishlariga mos klub yoki to‘garaklarga qatnashish, ijtimoiy va ko‘ngilli faoliyatlarda ishtirok etish nafaqat yangi do‘stlar o‘rtirish, balki o‘zini jamiyatda foydali shaxs sifatida his etish imkonini beradi. Chunki yolg‘izlikdan chiqishning eng yaxshi yo‘li o‘xshash fikrli insonlar bilan haqiqiy, samimiy aloqalar o‘rnatishdir.

Oilaviy darajada

O‘zbek oilalari tarixan mustahkam bo‘lib kelgan. Ammo shaharlashuv, bandlik va zamonaviy turmush tarzi bu rishtalarni zaiflashtirishi mumkin. Shu bois har bir oilada muntazam “oila davrasi”ni saqlash: kechki ovqatni birga yeyish, umumiy suhbat qurish, farzandlarni tinglash kabi odatlar yoshlarning yolg‘iz qolish xavfini kamaytiradi. Ota-onaning oddiygina “Bugun o‘qishing qanday bo‘ldi, kayfiyating yaxshimi?” degan savoli ham ko‘pincha yoshlarning ruhiy holati uchun katta tayanch bo‘ladi.

Jamoaviy darajada

Jamiyatimiz asrlar davomida mahalla va qo‘shnichilik qadriyatlari bilan ajralib turgan. Aynan mana shu jamoaviylik bugun ham yolg‘izlikka qarshi eng kuchli vosita hisoblanadi. Mahallalarda yoshlar uchun sport musobaqalari, kitobxonlik uchrashuvlari, madaniy tadbirlar o‘tkazish ularni real muloqotga, samimiy do‘stlikka chorlaydi. Shuningdek, maktab va oliy ta’lim dargohlarida psixologik maslahat markazlarini kuchaytirish, talabalarga “yordam guruhlarini”ni tashkil etish ham katta samara beradi.

Davlat va jamiyat miqyosida

So‘nggi yillarda yoshlar bilan ishlashga qaratilgan turli davlat dasturlari qabul qilinmoqda. Ammo ular nafaqat ish va ta’lim imkoniyatlariga, balki ruhiy salomatlikka ham e’tibor qarati-shi kerak. Masalan, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bilan birga “yolg‘izlik profilaktikasi” bo‘yicha ma’rifiy loyihalar yo‘lga qo‘yilishi lozim. Yoshlar orasida ijtimoiy psixologik yordamni ommalashtirish jamiyatning barqaror kelajagi uchun muhim.

SHAHARLA-SHUV, BANDLIK VA ZAMONAVIY TURMUSH TARZI BU RISHTALARNI ZAIFLASHTIRISHI MUMKIN.

“YASHIL KELAJAK” ECO-CAMP



Joriy yilning 10–14-sentabr kunlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi To‘dako‘l hududida “Yashil Kelajak” Eco-Camp oromgohi tashkil etiladi. Oromgohda yoshlarning ekologik muammolarga oid takliflari, startaplar hamda ijtimoiy loyihalarini

ilgari surish va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyat yaratiladi.

KIMLAR ISHTIROK ETA OLADI?

Ekologik yo‘nalishdagi g‘oya yoki ijodiy qarashlarga ega bo‘lgan barcha toifadagi yoshlar 3 kishidan osh-

Ro‘yxatdan o‘tish va g‘oyangizni yuborish uchun QR kodni skanerlang.



magan jamoa shaklida qatnashishi mumkin. Arizalar 5-sentabrga qadar qabul qilinadi.

NOVQA VA OYQOR TOG‘LARI

Baxmalni uning go‘zal va purviqor tog‘larisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Aslida “Baxmal” degan nom ham uning so‘lim va betakror tabiatidan kelib chiqqan. Turkiston va Morguzar tizma tog‘lari tutashgan hududda Novqa, Oyqor, Tangatopdi kabi ko‘plab xushmanzara joylar bor. Ular mahobatli qoyalari, adog‘i yo‘q yaylovlari, hayvonot va nabotot olamining xilma-xilligi bilan kishida o‘zgacha zavq va hayrat uyg‘otadi.

“Novqa” tuya cho‘kkan joy ma’nosini anglatadi. Tog‘ etagida joylashgan mazkur qishloq aholisi dehqonchilik hamda bog‘ dorchilik bilan shug‘ullanadi. Olma yetishtirmagan xonadon yo‘q. Novqa o‘zining qizil, qirmizi olmalari bilan mashhur.

Tabiat – mohir haykaltarosh. Ko‘plab toshlar turli nuqtadan turlicha ko‘rinadi. Ular tog‘ jinslarining yemirilishi va kuchli shamol tufayli paydo bo‘lgan. Olisdan odam gavdasini eslatadi: ibodat qilayotgan ayolni, yig‘layotgan bolani, qo‘y-qo‘zilar boqib yurgan cho‘ponni... Mo‘jizalardan hayratlanmaslikning iloji yo‘q.

Erta bahorda yalpiz, na‘matak, kiyiko‘t kabi o‘ndan ortiq turdagi dorivor g‘oyahlarni uchratish mumkin. Ularning shifobaxshligi va mo‘l-ko‘lligidan bu joylar qadimdan tabiblar yurti deb ataladi. Bu yerning tuprog‘i unumdorligi bois dehqonlari xirmon-xirmon hosil oladi. Yem-xashak bisyor.

Tog‘dan oqib tushuvchi jilg‘a va irmoqlar kichik ko‘llarni hosil qilgan. Ulardagi baliqlarning nafisligidan hayratga tushadi kishi. Zilol suv tubida tor tirqish va chalkash yo‘laklar hosil bo‘lgan. Tag‘in desangiz, tez-tez baliqchi qushlar ham paydo bo‘lib turadi.

Tog‘ kaktligi o‘ziga xos jozibaga ega. Ular husnini ko‘z-ko‘z qilib, tovush orqali bir-birlari bilan muloqotda bo‘ladi. Oftob qayoqqa ko‘chsa, kakliklar ham o‘sha tomonga talpinadi. Kaklik ko‘payish mavsumida o‘n sakkiztagacha bolalaydi. Polaponlar tuxumdan chiqqan zahoti oziq qidirishga tushadi deng. Ammo ular hali nimjon, qanotlari kuchga to‘lishi kerak...

To‘da bo‘lib yashaydigan tog‘ echkilari. “Soqchi”si sergak turganda qolganlari tinch, xotirjam oziqlanadi. Xavf-xatar tug‘ilgudek bo‘lsa, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi.

Novqalik hunarmandlar tayyorlagan ot egarlari dong‘i mamlakatimiz bo‘ylab yoyilgan. Egiluvchan bo‘lgani uchun usta hunarmandlar duradgorlikda tol yog‘ochidan foydalanadi. Tayyorlanadigan buyum mustahkam bo‘lishi uchun bir necha bo‘lakka ajratilib, pay bilan biriktiriladi. Hech bir mix yoki simsiz birikadi yog‘och bo‘laklari.

Qishloqda egarsozlik, pichoqchilik, temirchilik kabi hunarmandlik an‘analari davom ettirib kelayotgan sulolalar ancha-muncha. Bundan xalqimizning qadimdan ilm-u hunar o‘rganishga ishtiyoq va rag‘bati yuksak bo‘lganligini anglash mumkin.

Sevara ABDULLAYEVA,

O‘zMU talabasi



TADBIRKOR

G‘olib HASANOV,

O‘ZA muxbiri



maktab QURDI



Yangi o‘quv yili arafasida Samarqand shahridagi 52-umumta’lim maktabining 540 o‘rinli qo‘shimcha o‘quv binosi foydalanishga topshirildi.

E’tiborlisi, bino shu maktabning sobiq o‘quvchisi, ayni paytda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi Ilhom Rustamov tomonidan 15 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, bunyod etildi.

Shuningdek, tadbirkor maktabning 960 o‘rinli eski binosini ham mukammal ta’mirlab berdi. Endilikda ta’lim maskanida zamonaviy shart-sharoitlarga ega o‘quv xonalari bilan birga kasb-hunarga o‘rgatish

markazi, to‘garak xonalari ham tashkil etildi.

Binoning ochilish marosimida Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boboyev ishtirok etib, maktab jamoasini tabrikledi. Saxovatpe-sha tadbirkorga minnatdorlik bildirdi va viloyat hokimligining tashakkurnomasini topshirdi.

Tadbirkor Ilhom Rustamov bundan avval ham Samarqand shahri, Bu-lung‘ur va Ishtixon tumanlarida o‘z hisobidan maktablar qurib bergan edi. Ana shu xizmatlari va yurtimiz iqtisodiy taraqqiyotiga qo‘shayotgan katta hissasi uchun u o‘tgan yil “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan.

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Mas’ul muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV
Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboaq. Korxona manzili: Buyuk Turan ko‘chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-908, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6